



## 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligini va daromadlarni oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatdan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilish, hal etishda ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 1 032 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 216 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 048 ta (25,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14 903 tani tashkil etgan.




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 14 903 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,7 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 30,1 % savdo, 13,3 % sanoat, 9,5 % qurilish, 12,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 21,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlikda		01.04.2020 yil	
	01.04.2019 y.	01.04.2020 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>11 855</b>	<b>14 903</b>	<b>125,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 463	1 901	129,9	12,8
Sanoat	1 497	1 985	132,6	13,3
Qurilish	1 132	1 418	125,3	9,5
Savdo	3 172	4 484	141,4	30,1
Tashish va saqlash	604	628	104,0	4,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	722	929	128,7	6,2
Axborot va aloqa	166	195	117,5	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	133	162	121,8	1,1
Boshqa turlari	2 966	3 201	107,9	21,5

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4 328 ta), Sirdaryo (2 208 ta), Sayxunobod (1 197 ta) va Mirzaobod (1 185 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shirin shahri (352 ta) hamda Sardoba (661 ta) tumanida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 13 921 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 888 ta (26,2 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 29,9 % savdo, 13,4 % sanoat, 9,7 % qurilish, 12,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 21,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4 017 ta), Sirdaryo (1 990 ta), Sayxunobod (1 169 ta) Boyovut (1 076 ta) va Mirzaobod (1 124 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shirin shahri (323 ta), Sardoba (639 ta) hamda Oqoltin (751 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



birlikda



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil yanvar-mart oylarida 1 032 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 26,5 foizga ko'pdir.

## Yanvar–mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning


2016-2020-yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (220 ta), Oqoltin (143 ta), Sirdaryo (115 ta) va Mirzaobod (98 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shirin shahri (27 ta), Xovos (51 ta) hamda Guliston (67 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (484 ta), sanoat (169 ta), qurilish (63 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (149 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (7 ta), axborot va aloqa (10 ta) hamda tashish va saqlash (12 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalarini**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 11 803 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar–2 949 ta, oilaviy korxonalar-275 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–8 282 ta va boshqalar-297 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati**



**Xususiy korxonona**



**Oilaviy korxonona**



**Unitar korxonona**



**Aksiyadorlik jamiyati**



**Boshqalar**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 168 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 51 taga yoki 43,6 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 168 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Sirdaryo (53 ta), Guliston shahri (38 ta), Yangiyer shahri (20 ta) va Sayxunobod (12 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami esa Shirin shahri (5 ta), Guliston (4 ta) hamda Oqoltin (4 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda**




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 110 tasi qo'shma korxonalar, 58 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faollik darajasi, %**






**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>168</b>	<b>100,0</b>
Oqoltin tumani	4	2,4
Boyovut tumani	7	4,2
Sayxunobod tumani	12	7,1
Guliston tumani	4	2,4
Sardoba tumani	7	4,2
Mirzaobod tumani	10	5,9
Sirdaryo tumani	53	31,5
Xovos tumani	8	4,8
Guliston shahar	38	22,6
Shirin shahar	5	3,0
Yangiyer shahar	20	11,9

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11 752 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra qaraganda 30,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 495 tasi (29,7 %) Guliston shahri, 1 723 tasi (14,7 %) Sirdaryo, 992 tasi (8,4 %) Sayxunobod hamda 964 tasi (8,2 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
hududlar kesimida jamidagi ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11 752 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4 150 tasi (35,3%) - savdo, 1 839 tasi (15,7 %) - sanoat, 1 342 tasi (11,4 %) - qurilish, 1 725 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 861 tasi (7,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 560 tasi (4,8 %) - tashish va saqlash, 174 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, 111 tasi (0,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 990 tasi (8,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-mart oylarida 1 003 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 27,1 foizga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (208 ta), Oqoltin (142 ta), Sirdaryo (109 ta) va Mirzaobod (97 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Shirin shahri (26 ta), Guliston (66 ta) hamda Xovos (49 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (483 ta), sanoatda (169 ta), qurilishda (63 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (149 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (7 ta), axborot va aloqada (10 ta) hamda tashish va saqlashda (12 ta) tashkil etilgan.


## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 298 tani tashkil etib, ulardan 275 tasi yoki 92,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 52,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 44,7 % yoki 123 tasi sanoat, 14,6 % yoki 40 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,9 % yoki 41 tasi savdo, 20,4 % yoki 56 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 2 tasi, qurilish hamda 3,6 % yoki 10 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>94</b>	<b>100,0</b>
Oqoltin tumani	63	67,0
Boyovut tumani	3	3,2
Sayxunobod tumani	-	-
Guliston tumani	9	9,6
Sardoba tumani	-	-
Mirzaobod tumani	4	4,2
Sirdaryo tumani	1	1,1
Xovos tumani	5	5,3
Guliston shahar	8	8,5
Shirin shahar	-	-
Yangiyer shahar	1	1,1

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 48,9 % yoki 46 tasi sanoat, 14,9 % yoki 14 tasi savdo, 8,5 % yoki 8 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,1 % yoki 2 tasi qurilish, 21,3 % yoki 20 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 4,3 % yoki 4 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi statistik registrnlarni  
yuritish bo'limi  
Tel: (67)225-31-00